



DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI: INTERFAOL METODLAR

**Abdumalikova
Mardona
O'tkirjon qizi**

*Qo'qon Universiteti
Ta'lim fakulteti BT 1-21-guruh 4-kurs talabasi
abdumalikovamardona@3gmail.com*

Abstract

Ushbu maqolada o'qituvchilar tomonidan dars jarayonida samaradorlik sifatini oshirish maqsadida foydalanayotgan metod turlari, ularning zamonaviy ko'rinishlari xususida hamda ta'lim metodlarining mazmun-mohiyati, ularning turlari, ularga turlicha yondashuvlar, shu bilan birga ularning takomillashtirish yo'llari, ta'lim vositalari, shuningdek, ta'limning uskunaviy didaktik asoslari bilan tanishtirilgan holda zamonaviy metod turlari yoritib borilgan. O'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qilish, ularning o'zlashtirish darajasini oshirish, qiziqishini rag'batlantirish va o'ziga ishonch hosil qilishda interfaol metodlarning o'rni muhim. Maqola o'qituvchilarga dars samaradorligini oshirish uchun interfaol metodlarni qanday qo'llashni, o'quvchilarni jalb qilish va ta'limni yanada samarali qilish yo'llarini tushuntirishga qaratilgan. Interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilim olish darajasini oshirish, o'ziga ishonch hosil qilish va o'zlashtirish darajasini yaxshilashga yordam beradi.

Keywords : Interfaol metodlar, usullar, didaktik o'yinlar, interfaol ta'lim, boshlang'ich ta'lim, dars, o'quv jarayoni, noan'anaviy o'qitish.

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ko'lami kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'quv tarbiya jarayonida interfaol metodlardan foydalanish davr taqozosи hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Hozirgi kunda o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish, uning mazmun mohiyatini bilish, uni ta'lim jarayoniga tadbiq qilish va metodikasini yaratish juda muhimdir.¹

Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtiroy etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtiroy etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-jarayoni-samaradorligini-oshirish>

bo'ladi: ta'lim samarasi yuqoriqoq bo'lgan o'qish-o'rghanish; ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi amalda bajarish orqali o'rganilishi ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.²

Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko'rildi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishslash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari rivojlanadi.³

Interfaol metodlar (inglizcha: *interactive methods*) o'quv jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan o'quv usullari hisoblanadi. Bu metodlar o'quvchilarga faqat ma'lumotlarni qabul qilishdan tashqari, o'z fikrlarini ifodalash, bahslashish, muammolarni yechish va amaliy faoliyatlarda ishtirok etish imkonini beradi.

Interfaol metodlar turlari:

"Guruh ishlarini tashkil etish"

O'quvchilar guruhlarga bo'linib, ma'lum bir masala yoki loyiha ustida ishlaydi. Bu metod o'zaro muloqot, hamkorlik va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

"Rol o'yash"

O'quvchilar turli rollarni o'zlashtirib, muayyan vaziyatlarni simulyatsiya qilishadi. Bu metod empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali.

"Venn diagrammasi"

O'quvchilar ikki yoki undan ortiq ob'ektlar o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni taqqoslaydilar. Bu metod mantiqiy fikrlash va tahlil qilishni rivojlantiradi.

"Blits-o'yin" metodi – harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Amaliyot davrida qo'llanilgan quyidagi didaktik o'yinlar dars amaradorligini oshirishga imkon berdi.: - Omadli baliqchalar; -Quvnoq pochta; - O'rmonga sayohat . Bu didaktik o'yinlar o'quvchilarga manzur bo'ldi, ularning darsga qiziqishlari ortganini,o'yinga faol ishtirok etishganini kuzatdik..

"Omadli baliqchalar" o'yini- bunda baliqchalar va dengizning rasmi bo'ladi. Baliqchalarining orqasida savollar yoziladi, agarda o'quvchilar savollarga javob bera olsalar dengizga tushadi, javob bera olmasalar dengizga tusha olmaydi.

² <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-metodlari-va-vositalarini-darsdagi-samaradorligi>

³ <file:///C:/Users/User.AD.149/Downloads/Bomullayeva+Shodiyona.pdf> 90 bet.



“Quvnoq pochta”- bu didaktik o’yin quyidagicha olib boriladi: bunda katta qog’ozda turli kanvertchalar bo’ladi, ularni har birida savol hamda rag’bat uchun kartochkalar joylashtiriladi. O’quvchilar savolga javob bera olsalar rag’bat kartochkasini olishlari mumkin bo’ladi.⁴

“Navbatma-navbat” metodi. Bu didaktik o’yin quyidagicha olib boriladi: bu didaktik o’yinimizni 3-sinf o’qish kitobidagi ” Bir-birini kuzatar fasllar” she’rida qo’llab ko’rdik. O’yinimiz uchun 4 nafar o’quvchi kerak bo’ladi va har bir o’quvchini o’qituvchi nom berib qo’yadi. Misol uchun bahor, yoz, kuz, qish. O’yinimizda fasllarda qanday tabiat hodisalari ro’y beradi, shular haqida aytishadi navbatma-navbat o’zining fasliga topolmagan o’quvchi o’yinni tark etadi va bu o’yin bitta ishtirokchi qolgunga qadar davom etadi.

Misol:bahorda- gullar ochiladi, yozda- havo issiq bo’ladi, kuz- barglar sarg’aya boshlaydi, qizda-qor yog’adi kabi davom etaverishadi.

“Jallod” o’yini. Bu o’yinda bitta o’quvchi tanlab olinadi bitta so’z o’ylaydi va boshqa o’quvchilar u o’ylagan so’zida qatnashgan harfni topishlari kerak bo’ladi taxmin qilib.⁵ Bu o’yin orqali o’quvchilarni kreativ fikrlashga undaydi. Mustaqil ravishda o’z fikrlarini bayon qila olishadi.

“Begona” o’yini: Bunda beshta so’z bir tanish hikoyadan yoki ertakdan olinib, bitta so’z begona asardan olinadi. Masalan: "O’gay" "Erka", "Mehnatsevar", "Sehrli sandiq", "Ajdar" bitta "Kulol" begona so’z. Shu begona so’zdan ertakni davom ettirishadi.

“Topog’on” o’yini.

1. Tulki, sichqon, mazali non, dush, qochdi, dum, yong’oq;
2. Xurmo, malla soch, kamon, tush, afsus, daryo, osmon;
3. Taksi, kino, pul, sahifa, chipta, uyalib qoldik, sahna;
4. Ovchi. Muzqaymoq, bo’ri, hayvonot bog’i, qafas, daraxt;
5. Tuqli, koptok, erka, oyna, ertak, tosh.

Berilgan so’zlar ishtirokida matn tuzing va unga sarlavha toping.⁶

Xulosa qilib aytganda, dars o’tish jarayonida ta’limning interfaol metodlaridan unumli foydalanish, o’tilgan materialni yaxshi eslab qolishga, mustaqil fikrlay oladigan o’quvchining shakllanishiga, ta’lim mazmunini o’zlashtirishga yordam

⁴ <file:///C:/Users/User.AD.149/Downloads/14.pdf> 79 bet.

⁵ <https://ahaslides.com/uz/blog/quick-games-to-play-in-classroom/>

⁶ <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-ona-tili-va-o-qish-darslarida-turli-qiziqarli-o-yinlardan-foydalanish>

beribgina qolmasdan, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashning shakllanishiga, rivojlanishiga yordam beradi. O`z-o`zini baholash o`sadi, muloqotga kirishish ko`nikmasi takomillashadi. Dars samaradorligini oshirishda interfaol metodlar muhim rol o`ynaydi. Ushbu metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantirib, ularning mustaqil fikrlash va hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Interfaol yondashuvlar, masalan, guruh ishlari, muhokamalar va loyihalar, o'quvchilarning o'zaro fikr almashishiga imkon berib, dars jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Natijada, o'quvchilar nazariy bilimlarni amalda qo'llash, o'z fikrlarini ifodalash va tanqidiy fikrlash qibiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Interfaol metodlar, nafaqat, darslar sifatini oshirishga, balki o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Umuman olganda, interfaol metodlarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati kelajak avlodni zamonaviy bilimlar bilan ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 3-sinf O'qish kitobi. Po'lat Mo'min she'ri 27-28 bet.
2. <file:///C:/Users/User.AD.149/Downloads/14.pdf> 79 bet.
3. <file:///C:/Users/User.AD.149/Downloads/Bomullayeva+Shodiyona.pdf> 90 bet.
4. <https://ahaslides.com/uz/blog/quick-games-to-play-in-classroom/>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-ona-tili-va-o-qish-darslarida-turli-qiziqarli-o-yinlardan-foydalanish>
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-jarayoni-samaradorligini-oshirish>
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-metodlari-va-vositalarini-darsdagisi-samaradorligi>